

STARTAPLARDA MOLIYAVIY XARAKATLARNI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullaev Suxrobiddin Ismoilovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar (TIFT)

universiteti “Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi”

kafedrasi assistenti

Ruziyev Baxtiyor Turopboyevich

O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi

biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada startaplar iqtisodiyotning muhim qismi bo‘lib, ularning samarali moliyaviy boshqaruvi korxonalar muvaffaqiyatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Startaplar uchun moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida moliyaviy oqimlarni monitoring qilish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsion jalb qilish mexanizmlarini diversifikatsiyalash, risklarni boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlardan foydalanish kabi muhim jihatlari ko’rilib, nafaqat amaliyotda startaplar faoliyatini yaxshilash, balki ularning uzoq muddatli rivojlanishiga ko‘maklashishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar. Startaplar, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy strategiya, investitsiya jalb qilish, likvidlik, risklarni boshqarish, innovatsion yondashuvlar, moliyaviy oqimlar, raqamli texnologiyalar, xarajatlarni optimallashtirish.

KIRISH

So‘nggi yillarda startaplar jahon iqtisodiyotining innovatsion segmentini tashkil etib, iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda global startap ekotizimining qiymati 4 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Ayniqsa, AQSh, Xitoy va Hindiston kabi davlatlarda startaplar ekotizimi sezilarli darajada rivojlandi. Masalan, AQShda startaplarning umumiyligi kapitalizatsiyasi 2022-yilda 2 trillion dollardan oshgan bo‘lsa, Xitoyda bu ko‘rsatkich 1 trillion dollarga yetdi. O‘zbekistonda ham startaplar rivojlanishi davlatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2020-yilda O‘zbekistonda texnologik startaplar soni atigi 100 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 250 taga yetdi. Shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda startaplarga davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy ko‘mak hajmi 20 milliard so‘mga yetkazildi. Yevropa davlatlarida esa startaplarni qo’llab-quvvatlash dasturlari yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Bu bo‘yicha Germaniyada 2021-yilda startaplar uchun ajratilgan grant va subsidiyalar hajmi 1,2

milliard yevroni tashkil etdi, bu esa 2020-yilga nisbatan 15% ko‘pdir. Natijada Germaniyada muvaffaqiyatli startaplarning o‘sish sur’ati yiliga 10-12% ni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham startaplar ekotizimida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. Indoneziyada esa startaplarning soni 2018-yildagi 2 100 tadan 2023-yilda 3 500 taga yetgan, bu 66% o‘sishni anglatadi. Ushbu mamlakatda elektron tijorat va fintech sohalaridagi startaplar yetakchi o‘rinni egallaydi. Moliyaviy boshqaruv startaplarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun eng muhim omillardan biridir. AQShda muvaffaqiyatsizlikka uchragan startaplarning 29% i moliyaviy oqimlarni noto‘g‘ri boshqarish tufayli faoliyatini to‘xtatgan. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich startaplar o‘rtasida 35% ni tashkil etmoqda. Bu esa moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshirish zaruratini ko‘rsatadi. O‘zbekiston hukumati tomonidan startaplar uchun qulay moliyaviy muhitni yaratish borasida bir qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan “Startaplarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qonun doirasida biznes-inkubator va akseleratorlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston startaplari raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar sharxi. Amerikalik olim Steve Blank o‘zining “The Startup Owner’s Manual” asarida muvaffaqiyatli startapni yaratish uchun moliyaviy boshqaruvning strategik ahamiyatini ta’kidlaydi. U startaplar ko‘p hollarda mijozlar ehtiyojini noto‘g‘ri tushunish yoki moliyaviy resurslarni nooqilona sarflash tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchrashini qayd etadi. Blankning fikricha, moliyaviy rejalar biznes modelning barcha bosqichlarida, ayniqsa, dastlabki bosqichda, diqqat markazida bo‘lishi kerak[1]. Shveytsariyalik iqtisodchi Alexander Osterwalderning “Business Model Generation” asarida startaplar uchun moliyaviy oqimlarni boshqarish muhim jihat sifatida qayd etilgan. Uning fikriga ko‘ra, startaplarning raqobatbardoshligini ta’minalash uchun moliyaviy manbalarni diversifikatsiyalash va xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Osterwalder moliyaviy ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilish startaplarning barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi[2]. Yana bir AQShlik olim Eric moliyaviy samaradorlik va tezkor moslashuvchanlikning muhimligini qayd etadi. U “kam xarajat – yuqori natija” tamoyili asosida moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish va qisqa muddatli moliyaviy maqsadlarni belgilash startap muvaffaqiyatining kaliti ekanini uqtiradi. Ries, shuningdek, startaplarda moliyaviy xavflarni oldindan baholashning muhimligini ta’kidlaydi[3]. Garvard universiteti professori Paul Gompers o‘z tadqiqotlarida startaplar uchun venchur kapitalning ahamiyatini yoritgan. Uning fikriga ko‘ra, startaplarning muvaffaqiyati ko‘pincha moliyaviy resurslarni to‘g‘ri jalb qilish va ular bilan samarali boshqarish qobiliyatiga bog‘liq. Gompersning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, venchur kapital bilan ishlaydigan startaplarning hayotiylik darajasi boshqa moliyalashtirish manbalariga tayanadigan startaplarga qaraganda 25-30% ga

yuqori bo‘ladi[4] fikr yuritgan. Bu bo‘yicha Respublikamiz olimlaridan Abdullayev Ibrohim Anvarovich O‘zbekistonlik o‘zining ilmiy maqolalarida O‘zbekistondagi startaplarning moliyaviy boshqaruvi va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ko‘makni chuqur tahlil qiladi. Uning fikriga ko‘ra, startaplar muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning moliyaviy strategiyalarini to‘g‘ri shakllantirishiga bog‘liq. Abdullayevning ta’kidlashicha, startaplar uchun raqamli moliyaviy boshqaruv vositalarini keng joriy etish O‘zbekiston bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi[5]. Yana bir olim Karimova Dilafruz Islomovna tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekistondagi startaplar moliyalashtirishning cheklanganligi va resurslarni noto‘g‘ri taqsimlash kabi muammolarga duch kelmoqda. Karimovaning fikricha, moliyaviy oqimlarni boshqarish uchun texnologik yechimlarni joriy etish va davlat grantlarini ko‘paytirish startaplarning muvaffaqiyat darajasini oshiradi[6] deb izohlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich tahlil uchun statistik ma'lumotlar va so‘rovnomalari yordamida miqdoriy metodlar qo‘llaniladi, keyinchalik esa chuqur tahlil va kvalifikatsion yondashuv uchun sifatli usullar, masalan, intervyyu va ekspert baholari orqali startaplar moliyaviy boshqaruvining asosiy muammolari va imkoniyatlari o‘rganiladi.

Tahlil va natijalar. Startaplar O‘zbekistonda moliyaviy boshqaruvning bir qator muammolariga duch kelmoqda. Birinchidan, ko‘plab startaplar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud. Xususan, banklar va investorlarga startaplarning yuqori risk darajasi ta’sir qiladi, bu esa ularga qarz berishni yoki investitsiya qilishni noqulaylashtiradi. Natijada, startaplar ko‘pincha shaxsiy jamg‘armalar yoki oilaviy mablag‘lar hisobiga faoliyat yuritishga majbur bo‘ladi, bu esa uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlay olmaydi. Ikkinchidan moliyaviy boshqaruvning unchalik rivojlanmaganligi. O‘zbekistondagi ko‘plab startaplar o‘z biznes rejalari va moliyaviy oqimlarini rejalashtirishda yetarli malakaga ega emas. Bu esa xarajatlarni boshqarish, foydali investitsiyalarni jalb qilish va operatsion samaradorlikni oshirishda qiyinchiliklarga olib keladi. Boshqacha aytganda, startaplar moliyaviy yondashuvlarni aniq va samarali tarzda shakllantirishda muammolarga duch kelmoqda. Uchinchidan, moliyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha aniq strategiyalarning yo‘qligi ham katta muammo hisoblanadi. Ko‘plab startaplar moliyaviy risklarni oldindan tahlil qilmaydi va natijada kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa ularning bozor raqobatiga dosh bera olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamli moliyaviy vositalar va yangi texnologiyalarni joriy etishning kamligi ham risklarni samarali boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi.

Startaplar uchun moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishning eng samarali yechimi – bu zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy boshqaruv tizimlarini raqamlashtirishdir. Raqamli vositalar, moliyaviy boshqaruv

dasturlari va analitik platformalar, startaplarga o‘z moliyaviy oqimlarini real vaqtida kuzatish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsiyalarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, startaplar uchun moliyaviy risklarni boshqarishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish, shu jumladan, investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish va risklarni oldindan baholash metodlarini joriy etish muhimdir. Davlat va xususiy sektorning startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorligini kuchaytirishdir. Xalqaro tajribaga asoslanib, O‘zbekistonda startaplar uchun moliyaviy ko‘makning kengaytirilishi va qo‘llab-quvvatlash tizimining yaxshilanishi zarur. Bu o‘z ichiga, moliyaviy grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va investitsiya tarmog‘ining kengaytirilishini oladi. Bunday choralar startaplarga barqaror moliyaviy o‘sishni ta’minlash va ularga yuqori riskli invesitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi.

Quidagi jadvalda startaplar moliyaviy boshqaruvidagi asosiy muammolarni va ularga taklif etilgan yechimlarni umumlashtiradi. Jadvalda ko‘rsatilgan har bir muammo va yechim, O‘zbekistondagi startaplar uchun moliyaviy boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan strategik qadamlarni aks ettiradi. Yechimlar zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektorning startaplarni qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirish hamda risklarni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin.

1-jadval

Startaplar moliyaviy boshqaruvida muammolar va yechimlar

| | | |
|--|--|--|
| Moliyaviy resurslarni qilishdagi qiyinchilik | Startaplar uchun moliyaviy grantlar va investitsiyalarni ko‘paytirish | Davlat va xususiy sektorning ko‘maklashishi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur. |
| Moliyaviy boshqaruvning rivojlanmaganligi | Zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish (moliyaviy boshqaruv dasturlari) | Raqamli vositalar orqali moliyaviy oqimlarni kuzatish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratish. |
| Moliyaviy risklarni boshqarishdagi qiyinchiliklar | Risklarni tahlil qilish va diversifikasiya qilish, moliyaviy strategiyalarni optimallashtirish | Risklarni oldindan baholash va samarali boshqarish uchun strategiyalarni joriy etish zarur. |

Jadvalda keltirilgan muammolar va yechimlar, O‘zbekistondagi startaplar moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun muhim qadamlarni ko‘rsatadi. Moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar, boshqaruvning rivojlanmaganligi va risklarni boshqarishdagi zaifliklar startaplarning o‘sishiga

to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat ko'magini kuchaytirish va risklarni boshqarishning aniq strategiyalarini ishlab chiqish bu muammolarni hal qilishda samarali vositalar bo'lishi mumkin. Yechimlar orqali startaplar uchun moliyaviy boshqaruvning barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish mumkin.

XULOSA

O'zbekistondagi startaplar uchun moliyaviy boshqaruv tizimi hozirgi kunda bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar orasida moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar, moliyaviy boshqaruvning unchalik rivojlanmaganligi va risklarni boshqarishdagi samaradorlikning pastligi alohida o'rinn tutadi. Ko'plab startaplar o'z faoliyatini shaxsiy mablag'lar hisobiga yuritishga majbur bo'lishmoqda, bu esa o'sish va barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslardan mahrum qiladi.

Shu bilan birga, startaplarning moliyaviy boshqaruvni yanada samarali tashkil etish uchun zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar yordamida moliyaviy oqimlarni real vaqtda kuzatish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsiyalarni samarali boshqarish mumkin. Bundan tashqari, startaplar uchun moliyaviy risklarni oldindan tahlil qilish va diversifikatsiya qilish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish ham zarur.

Moliyaviy boshqaruvni yaxshilash va startaplar uchun barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanishi kerak. Davlatning startaplarni qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirishi, grantlar va subsidiyalar ajratishi, shuningdek, investitsiya tarmog'ini rivojlantirishi startaplar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bularning barchasi O'zbekistondagi startaplar moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish va ularning global bozorda muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Blank, Steven Gary. *The Startup Owner's Manual: The Step-by-Step Guide for Building a Great Company*. Pescadero, California K&S Ranch Publishing. 2012 yil. 608 bet.
- Osterwalder, Alexander, va Yves Pigneur. *Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers*. Hoboken, New Jersey: Wiley 2010. yil. 288 bet.
- Ries, Eric. *The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses*. New York Crown Business. 2011 yil. 336 bet.
- Gompers, Paul Alan, va Josh Lerner. *The Venture Capital Cycle*. Cambridge, Massachusetts MIT Press 2004 yil. 592 bet.

5. Abdullayev, Ibrohim Anvarovich. O‘zbekistonda startaplarni moliyalashtirish strategiyalari: muammolar va yechimlar. Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi 2021 yil. 234 bet.
6. t.Karimova, Dilafruz Islomovna. O‘zbekistonda startaplarni moliyaviy boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti 2020 yil. 198 bet.